XALQ DEPUTATLARI FURQAT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 23-iyul VI-78-77-11-164-K/24 Furqat tumani

Tuman hududida joylashgan ziyoratgoh va qabristonlarni nomlash va nomlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2011-yildagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-303-sonli Qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash sohasidagi davlat siyosatini yanada takomillashtirish hamda samarali amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Furqat tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 25-iyundagi 05-19-01-2335-sonli “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida”gi ekspert xulosasi asos uchun qabul qilinsin.
2. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining tuman hududida joylashgan ziyoratgoh va qabristonlarga nom berish to‘g‘risidagi takliflari qabul qilinsin.
3. Tumandagi ziyoratgoh va qabristonlarning nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Tuman Statistika bo‘limi, Davlat kadastrlar palatasining Furqat tumani filiali, Qurilish va uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish bo‘limi hamda tegishli mutasaddi davlat tashkilotlari rahbarlari amaldagi tartibda nom berilgan ziyoratgoh va qabristonlar nomlarini davlat ro‘yxatidan o'tkazish va elektron bazasini shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga o‘zgartirish kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.
5. Mahalla fuqarolar yig‘inlari raislariga va Obodonlashtirish boshqarmasi (R.Yusupov) ga nom berilgan ziyoratgoh va qabristonlarga nomlari qayd etilgan ko‘rsatkichlarni o‘rnatish vazifasi topshirilsin.
6. Tuman hokimining maslahatchisi Y. Isaqovga ushbu qaror bilan tasdiqlangan ziyoratgoh va qabristonlar nomlarini belgilangan tartibda davlat reestriga belgilangan tartibda kiritish ishlarini bajarish vazifasi yuklatilsin.

7. Geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni moliyalashtirish mahalliy budjet mablag‘lari va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

8. Mazkur qaror “Navbaxor” ro‘znomasining navbatdagi sonida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman xokimligi Axborot xizmati (U.Bozorov) hokimlik veb-saytiga qaror tastiqlangandan so‘ng 3 kun muddatda joylashtirilishi ta’minlasin.

9. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli doimiy komissiyalari zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi  JURAYEV IFTIXORJON ABDUMUXTOROVICH

Xalq deputatlari Furqat tumani
Kengashining
2024-yil 23-iyuldagi
VI-78-77-11-164-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Furqat tumanidagi ziyoratgoh va qabristonlarning tasdiqlangan nomlari RO‘YXATI

T/r	Geografik ob’ekt ning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik ob’ektning amaldagi nomi	Ekspert komissiyasi tasdiqlagan nomi
1	2	3	4	5
1.	Qabriston	“O‘rtaqo‘rg‘on” MFY	Nomsiz	O‘rtaqo‘rg‘on
2.	Qabriston	“O‘rtaqo‘rg‘on” MFY	Nomsiz	Beshmirza
3.	Qabriston	“O‘rtaqo‘rg‘on” MFY	Nomsiz	Qo‘rg‘oncha
4.	Qabriston	“Chirkay” MFY	Nomsiz	O‘pchinota
5.	Qabriston	“Qizilqiyoq” MFY	Nomsiz	Boshqo‘rg‘on
6.	Qabriston	“Qizilqiyoq” MFY	Nomsiz	A’lambobo
7.	Qabriston	“Shoyimbek” MFY	Nomsiz	Abadiyat
8.	Qabriston	“Shoyimbek” MFY	Nomsiz	Buloqboshi
9.	Qabriston	“Kichik Yangi” MFY	Nomsiz	Kichik Yangi
10.	Qabriston	“Kichik Yangi” MFY	Nomsiz	Qashqaqum
11.	Qabriston	“Kichik Yangi” MFY	Nomsiz	Katta Qashqaqum
12.	Qabriston	“Ko‘kdo‘ppi” MFY	Nomsiz	Ko‘kdo‘ppi
13.	Qabriston	“Qushchi” MFY	Nomsiz	Qushchi
14.	Qabriston	“Qushchi” MFY	Nomsiz	Cheksharif
15.	Qabriston	“Qushchi” MFY	Nomsiz	Hamraobod
16.	Qabriston	“Hayit” MFY	Nomsiz	Hayit
17.	Qabriston	“Hayit” MFY	Nomsiz	Dog‘iston
18.	Qabriston	“Karmak” MFY	Nomsiz	Karmak
19.	Qabriston	“Beshog‘a” MFY	Nomsiz	Katta Beshog‘a
20.	Qabriston	“Beshog‘a” MFY	Nomsiz	Kichik Beshog‘a
21.	Qabriston	“Eski” MFY	Nomsiz	Eski
22.	Qabriston	“Eski” MFY	Nomsiz	Kapa
23.	Qabriston	“Chekko‘prik” MFY	Nomsiz	Chekko‘prik
24.	Qabriston	“To‘rg‘ay” MFY	Nomsiz	To‘rg‘ay
25.	Qabriston	“Tomosha” MFY	Nomsiz	Tomosha
26.	Qabriston	“Tomosha” MFY	Nomsiz	Qurultoy-Cheksharif
27.	Qabriston	“Polvontosh” MFY	Nomsiz	Polvontosh
28.	Qabriston	“Polvontosh” MFY	Nomsiz	Oqoltin
29.	Qabriston	“Katta Yangi” MFY	Nomsiz	Katta Yangi
30.	Qabriston	“Katta Yangi” MFY	Nomsiz	Olatoy
31.	Qabriston	“Jangketmon” MFY	Nomsiz	Jangketmon

32.	Qabriston	“Jangketmon” MFY	Nomsiz	Qulbobo
33.	Qabriston	“G‘uncha” MFY	Nomsiz	Sho‘xay
34.	Qabriston	“Boltako‘l” MFY	Nomsiz	Boltako‘l
35.	Qabriston	“Boltako‘l” MFY	Nomsiz	Sulton
36.	Qabriston	“Navbahor” MFY	Nomsiz	Navbahor
37.	Qabriston	“Yangi” MFY	Nomsiz	Surpa
38.	Qabriston	“Qo‘qonboy” MFY	Nomsiz	Qo‘qonboy
39.	Qabriston	“Qo‘qonboy” MFY	Nomsiz	Ayritom
40.	Qabriston	“Sho‘r” MFY	Nomsiz	Sho‘rqishloq
41.	Qabriston	“G‘allakor” MFY	Nomsiz	Bog‘ibo‘ston
42.	Qabriston	“Jaloyir” MFY	Nomsiz	Pastki Jaloyir
43.	Qabriston	“Jaloyir” MFY	Nomsiz	Qilichmergan
44.	Qabriston	“Ardaxshon” MFY	Nomsiz	Ardaxshon
45.	Qabriston	“Ardaxshon” MFY	Nomsiz	Uzunchek
46.	Qabriston	“Ardaxshon” MFY	Nomsiz	Shabada
47.	Qabriston	“Shunqor” MFY	Nomsiz	Shunqor
48.	Qabriston	“Shunqor” MFY	Nomsiz	G‘irri
49.	Qabriston	“Shunqor” MFY	Nomsiz	Xo‘jabobo
50.	Qabriston	“Chekchuvaldoq” MFY	Nomsiz	Chekchuvaldoq
51.	Qabriston	“Eshon” MFY	Nomsiz	Eshon
52.	Qabriston	“Ingichka” MFY	Nomsiz	Buzrukbuva
53.	Qabriston	“Chilgijiyda” MFY	Nomsiz	Chilgijiyda
54.	Qabriston	“Chilgijiyda” MFY	Nomsiz	Shoto‘ra
55.	Qabriston	“G‘alakor” MFY	Nomsiz	Tillatepa
56.	Qabriston	“G‘alakor” MFY	Nomsiz	Do‘stlik
57.	Qabriston	“Kaldushon” MFY	Nomsiz	Oltambir
58.	Qabriston	“Kaldushon” MFY	Nomsiz	Ayvosh
59.	Qabriston	“Kaldushon” MFY	Nomsiz	Oqtuproq
60.	Qabriston	“Bekobod” MFY	Nomsiz	Bekobod
61.	Qabriston	“Istiqlol” MFY	Nomsiz	Paxtaobod
62.	Qabriston	“Yangi” MFY	Nomsiz	Xristianlar
63.	**Ziyoratgoh**	“Bekobod” MFY	Nomsiz	Abdulqahhorota